

**2022-2023-O'QUV YILIDA TA'LIM BOSHQA TILLARDA OLIB
BORILADIGAN MAKTABLARNING 11-SINF O'QUVCHILARI
UCHUN O'ZBEK TILI FANIDAN YAKUNIY DAVLAT
ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH BO'YICHA METODIK TAVSIYA
VA MATERIALLAR**



TOSHKENT – 2023

Imtihon materiallari Respublika ta'limi markazining filologiya fanlari ilmiy-metodik kengashida 2023-yil 6-martdagi 1-son qarori asosida foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchi:

U. Mamadiyev – Respublika ta'lim markazi o'zbek tili fani metodisti

Taqrizchi:

I. Bakirova – XTV tasarrufidagi PMTIDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi.

Muharrir:

O. Musurmonkulova – Respublika ta'lim markazi metodisti.

O‘ZBEK 11-SINF

2022-2023-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 11-sinflarida ona tili fanidan yakuniy imtihon ushbu tavsiya etilgan bilet savollari asosida o‘tkaziladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari metodbirlashmalarining yig‘ilish qaroriga muvofiq yakuniy imtihoni materiallariga 15%-20% gacha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 11-sinf o‘quvchilari o‘zbek tilida imtihonda o‘quvchilarga topshiriqlar bo‘yicha tayyorlanish uchun 15-20 daqiqa vaqt beriladi.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 11-sinf o‘quvchilari o‘zbek tilida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olishi, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qilishi, jamoaviy hamkorlikda ishlay olishi, mavjud axborot manbalaridan foydalana olishi; badiiy va san’at asarlarini tushunib, ulardan ta’sirlana olishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi; o‘rganilgan grammatik bilimlarga tayangan holda o‘zbek tilidagi mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari, grammatik vositalarning so‘zlarga qo‘shilishi bilan bog‘liq imlo qoidalarini bilish va amal qilishi; so‘zlarni o‘zaro bog‘lash vositalari, so‘z birikmasi, gap va gap bo‘laklari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi; o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalaridan: tez aytish, topishmoq, maqol, masal, rivoyatlarni, o‘rganilgan mavzu bo‘yicha o‘zbek adabiyoti namunalaridan berilgan parchalarni o‘qib, so‘zlab berishi, she’rlarni ifodali o‘qishi, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy hayotiga oid lavhalarni, o‘zbek allomalari, olimlari, madaniyat ravnaqiga hissa qo‘shgan insonlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishi; o‘zbek tilidagi muomala odobi, murojaat shakllarini, shuningdek, o‘zbek tilida xabarlar, xatlar yozish qoidalarini amalda qo‘llay olishi kerak bo‘ladi. Shunga ko‘ra, o‘zbek tili fanidan imtihon materiallari Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida belgilangan materiallar asosida tayyorlandi. Imtihon biletleri 3 ta savoldan iborat.

1-savol 11- sinf darsligida berilgan nutqiy mavzular bo‘yicha tuzilgan. O‘quvchi matnni o‘qib mazmunini so‘zlab berishi hamda matn yuzasidan berilgan savollarga javob berishi, savol tuzishi lozim. O‘qituvchi darslikda adabiy o‘qish uchun tavsiya etilgan matnlar, she’rlar, mustaqil tanlangan matnlardan parchalarni oldindan tayyorlab qo‘yadi. O‘quvchi matnni o‘zi bilgan qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldirishi ham mumkin.

2-savol grammatik topshiriq bo‘lib, bunda o‘quvchi o‘rganilgan leksik va grammatik materiallar asosida berilgan topshiriqni bajaradi. Ya’ni nuqtalar o‘rnini kerakli qo‘shimchalar, so‘zlar bilan to‘ldirishi; so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llab gaplar hosil qilishi, gaplarni tarjima qilishi talab etiladi.

3-savol erkin mavzuda suhbat tarzida bo‘lib, savollar o‘quvchilarning kundalik hayotida zarur bo‘lgan so‘zlashuv mavzulari bo‘yicha tuzilgan. O‘quvchi berilgan savollar asosida o‘z fikrini bog‘lanishli bayon etadi, mazmunini qisqacha izohlaydi.

O'quvchilarning imtihondagi javoblari quyidagi me'yorlar asosida baholanadi.

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1	O'quvchi tanlangan matnni o'qisa, matn mazmunini qayta hikoya qilsa, savollarga to'liq javob bersa, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitsa, matnni, she'rni ifodali o'qisa va matndagi so'zlarning lug'atini bilsa;	5
2	Berilgan grammatik topshiriqni tushunib to'g'ri bajarsa va izohlab bersa, imlo qoidalariga rioya qilgan holda so'z va so'z shakllarini xatosiz yoza olgan bo'lsa;	
3	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida ijodiy yondashib o'zbek tilida o'zaro erkin muloqot qila olsa, fikrini o'zbek tilida izchil bayon eta olsa, mavzu bo'yicha qo'shimcha savollarga to'liq javob bersa.	
4	O'quvchi tanlangan matnni o'qisa, matn mazmunini qayta hikoya qilsa, savollarga to'liq javob bersa, matnni, she'rni o'qishda so'zlarning talaffuzida xatoga yo'l qo'ysa;	4
5	Berilgan grammatik materialni tushunib to'g'ri bajarsa, so'z va so'z shakllarini qo'llashda xatoga yo'l qo'ysa;	
6	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o'zbek tilida o'zaro muloqot qila olsa, fikrini izchil bayon eta olsa, mavzu bo'yicha qo'shimcha savollarga javob bersa.	
7	O'quvchi tanlangan matnni o'qisa, matn mazmunini tushuntirishda qiynalsa, savollarga qisman javob bersa, she'rni yoddan aytib berish bilan cheklansa;	3
8	Berilgan grammatik materialni bajarishda qiynalsa, so'z va so'z shakllarini qo'llashda xatoga yo'l qo'ysa;	
9	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o'zbek tilida muloqotga kirisha olmasa, fikrini qisman bayon etsa, mavzu bo'yicha qo'shimcha savollarga javob berishda qiynalsa.	
10	O'quvchi tanlangan matnni o'qisa, biroq mazmunini tushuntira olmasa, savollarga qisman javob bersa;	2
11	Berilgan grammatik materialni bajarishda xatoga yo'l qo'ysa, so'z va so'z shakllarini to'g'ri qo'llay olmasa;	
12	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o'zbek tilida muloqotga kirisha olmasa, o'z fikrini qisman bayon etsa, mavzu bo'yicha qo'shimcha savollarga javob bera olmasa.	
13	O'quvchi tanlangan matnni o'qishda xatoga yo'l qo'ysa, savollarga qisman javob bersa;	1
14	Berilgan grammatik materialni bajara olmasa;	
15	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu bo'yicha javob bermasa, qo'shimcha savollarga qisman javob bersa;	
16	O'quvchi biletidagi savollarga umuman javob bermasa;	
		0

11- SINIF

1- bilet

1. Qanday iboralarni bilasiz? Iboralar nima uchun kerak?
2. Jahon adabiyotiga mansub oxirgi o‘qigan kitobingiz haqida so‘zlab bering.
3. Kelajakdagi maqsadlaringizga erishish uchun qanday rejalarni tuzdingiz va hozirda qaysi rejani amalga oshirishga harakat qilyapsiz?

2- bilet

1. Tarjimayi holingizni yozing.
2. “Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar ” maqolining mazmunini tushuntirib bering.
3. Alisher Navoiy haqida bilgan va o‘qigan ma’lumotlaringiz asosida shoir haqida so‘zlab bering.

3- bilet

1. “Hazrati inson” asari muallifi kim? Muallif haqida ma’lumot bering.
2. Qanday ish qog‘ozlarini bilasiz? Sababsiz o‘qishga kelmasa qanday rasmiy xat yoziladi?
3. Kelajakda biznes bilan shug‘ullanish istagingiz bormi? Bu haqida gapirib bering.

4- bilet

1. “ Xalqimizning yetuk farzandi” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Ariza qanday yoziladi?
3. Hozirgi kunda biror asarni o‘qish uchun kutubxonaga borish yoki sotib olish shart emas, chunki kitoblarning elektron variantini topib o‘qish mumkin. Bu fikrga munosabatingizni bildiring. Qaysi kitoblarning elektron variantidan foydalangansiz?

5- bilet

1. Sharof Rashidov haqidagi matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.
2. Berilgan maqol va hikmatlarning davomini yozing.
Yaxshilik nur keltirar, _____.
Yoshlikda olingan bilim, _____.
Kattaga hurmatda bo‘l, _____.
Hunarni asrabon netgumdir oxir, _____.
3. Hozirgi kunda o‘z ilmi va hunari bilan dunyoni o‘zgartirayotgan insonlar haqida gapiring.

6- bilet

1. “Usta Shirin Murodov” matnini o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.
2. Maqollarning, muqobilini toping, mazmunini tushuntiring.
Oltin o‘tda bilinar, odam- mehnatda. Aytilgan so‘z – otilgan o‘q.
3. Mobil telefonining foydali va zararli tomonlarini tushuntirib bering.

7- bilet

1. “Sahna yulduzlari” matnini o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.
2. Qanday ish qog‘ozlari mavjud? Tavsifnoma matnini yozing.
3. Ta’lim sohasida bo‘layotgan yangiliklar haqida ma’lumot bering.

8- bilet

1. Alisher Navoiyning ruboiylarini yoddan ayting, mazmunini izohlab bering.
2. Ariza matnini yozing.
3. Sog‘lom turmush tarzi deganda nimani tushunasiz? Fikringizni bildiring.

9- bilet

1. “Abror Hidoyatov” matnini o‘qing va savollarga javob bering
2. Quyidagi hikmatning mazmunini tushuntiring.

Yaxshilik qo‘lingdan kelmasa,

Yomonlik ham qilma.

3. O‘zbekistonda qanday tarixiy shaharlar bor? Ular haqida ma’lumot bering

10-bilet

1. “Boburning shaxsiy fazilatlarini” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Quyida berilgan tasviriy ifoda vositalarining nomini yozing: oltin boshqoq, salomatlik posboni, dala malikasi, mo‘yqalam sohibi, charm qo‘lqop ustasi.
3. Vatanga sadoqat, vatanparvarlik nimalarda aks etadi? Gapirib bering.

11-bilet

1. “Davr farzandi” she’rini o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.
2. Berilgan so‘zlardan zid ma’nosi bor so‘zlarni yozing.

quvonch – ____

o‘kinish – _____

changalzor – _____

unvon – _____

xavotirlanmoq – _____

tasviriy – _____

3. Alisher Navoiyning hikmatini o‘qing va mazmunini tushuntiring.

*Boshni fido qilg'il ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.*

12-bilet

1. "Ikki buyuk adib" matnini o'qing, mazmunini so'zlab bering.
2. Qanday so'zlar shakldosh so'zlar deb ataladi? Misollar keltiring.
3. Kelajagingizni qanday tasavvur qilasiz? Savolga javob yozing.

13-bilet

1. Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma" she'rini o'qing, mazmunini so'zlab bering.
2. Qanday kishilar dono deb hisoblanadi? Fikringizni bayon qiling.
3. Mardlik, mard inson deganda nimani tushunasiz? Misollar keltirib so'zlab bering.

14-bilet

1. Vilyam Shekspir haqidagi matnini o'qing. Savollarga javob bering.
2. Quyidagi so'zlarni to'g'ri tartibda joylashtirib maqol hosil qiling:
ko'rib, yaxshini, ko'rib, yomoni, shukur qil, fikr qil. Sotgan, er, Vatanni, bo'lmas
3. Sayohat deganda nimalar ko'z oldingizga keladi? O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlarni qiziqtiradigan tarixiy obidalar haqida ma'lumot bering.

15-bilet

1. Rasul Hamzatovning "Ona tilim" she'rini ifodali o'qing. Nima uchun shoir ona tilini muqaddas, buyuk hisoblaydi?
2. Quyidagi maqollarni tarjima qiling, muqobilini toping, mazmunini tushuntiring. *Qolgan ishga qor yog'ar. Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar. Tejab yegan darmonda, tejamagan — armonda.*
3. Kino san'ati qachon paydo bo'lgan? Qanday kinofilmlarni tomosha qilasiz? O'zbek kino yulduzlaridan kimlarni bilasiz? Gapirib bering.

16-ilet

1. "Shohjahon asri" matnini o'qing, mazmunini so'zlab bering.
2. Antonim so'zlarni aniqlang.
1.To'g'ri til tosh yorar, egri til bosh yorar. 2. Erta ekan xirmon qilur, kech ekan armon qilur. 3.Eski yilning hisobi — yangi yilning kitobi. 4.Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar.

3. Siyosatchi deganda siz kimlarni tushunasiz? Ularda qanday sifatlar bo'lishi kerak?

17-bilet

1. "Mark Tven yon daftarchasidan" matnidagi hikmatlarni o'qing, munosabat bildiring.

2. Berilgan so'z birikmalari yordamida gaplar tuzing. Ko'chma ma'noli so'zlarni aniqlang.

Oltin kuz, uzukning ko'zi, tosh yurak, temir qanot.

3. Tavsifnoma yozing. Bu hujjat qachon va kim tomonidan yoziladi?

18-bilet

1. «O'zbekiston- suveren davlat» matnini o'qing. Mazmunini ochuvchi savollar tuzing.

2. Berilgan gapdagi kiritmalarni belgilang. *Uning o'g'illari: (ularni hamma taniydi) Murod va Hakim maktabda o'qiydi. Mushuk yarmi qizil, yarmi sariq koptokni (u Adibaning mushugi) u yoqdan bu yoqqa dumalatish bilan ovora edi.*

3. Sizda qanday salbiy va ijobiy sifatlar bor? Qanday sifatlar sizda bo'lishini yoki bo'lmasligini xohlar edingiz?

19-bilet

1. Shtlandiyalik fermer haqidagi matnni o'qing. Matnda qanday g'oya ilgari surilgan?

2. *Yurtim, onajon, do'stim, hayot, buvijon* so'zlarini undalmaga aylantirib gaplar tuzing.

3. Tarjimayi holingizni yozing.

20-bilet

1. "Toms" matnini o'qing va matnni ochib beruvchi savollar tuzing.

2. Ichki va tashqi monolog haqida gapiring. Misol yozing.

3. Rezyume yozing.

21-bilet

1. Donishmand va aka-uka haqidagi hikoyani o'qing va munosabatingizni bildiring.

2. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarning mosini qo'yib yozing va mazmunini tushuntiring

...ning so'zi qisqa, aytgani esa .. (yo'llanma, aqlli) Aqlli o'rnida ... - da, javobini ... (so'zlaydi, kutadi)

3. Orzu bilan maqsadning farqi nimada?

22-bilet

1. Muvaffaqiyat siri” matnini o‘qing va munosabatingizni bildiring. .
2. Savolni o‘qing. Savol asosida dialogik matn tuzing.

Tirikchilik qilish uchun hunar o‘rganish yoki biror narsa yasab sotish uchun ustaga shogird tushish shartmi? Yoki kitob, video, internet orqali o‘rganish ham mumkinmi?

3. Advokatlar haqida ma’lumot bering. Advokatlar qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?

23-bilet

1. “Shoir ijodida Dog‘iston timsoli” matnini o‘qing mazmunini so‘zlab bering.
2. Berilgan gaplardagi iboralarning so‘z juftini topib yozing. Ona farzandini kutaverib, yuragi tars yorilib ketayozdi. Zamira dugonasining xatolarini bo‘yniga qo‘ydi.
3. Ota-ona sifatida o‘zingizni qanday tasavvur qilasiz?

24-bilet

1. “Pochtachilikdan yozuvchilikkacha” matnini o‘qing, matn mazmunini ochuvchi savollar tuzing.
2. Iboralarning mazmunini tushuntiring.
Kapalagi uchib ketdi, ustidan chiqdi, tosh otdi, to‘nini teskari kiydi, qovog‘idan qor yog‘di.
3. Iqtisod odobi haqida nimalarni bilasiz?

25-bilet

1. “Mark Tven haqidagi qiziqarli faktlar” matnini o‘qing, munosabatingizni bildiring.
2. Berilgan so‘z birikmalari yordamida gaplar tuzing va ko‘chma ma’nodagi birikmalarni belgilang. Tosh yo‘l. Tosh yurak. Temir qanot. Temir darvoza. Kumush qoshiq. Kumush to‘y.
3. O‘zbekistondagi qadimiy inshootlar haqida bilasizmi? Ularga qachon asos solingan? Nima sababdan bugungi kungacha bu inshootlar saqlanib qolgan?

26-bilet

1. “Vaqtning munosib taqsimlash - marraning yarmi” matnini o‘qing. Siz matndagi fikrlarga qanday qo‘shimchalar qilardingiz?
2. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.
__(rost, to‘g‘ri) o‘zadi, egri to‘zadi.
__(murodim, maqsadim) oliy o‘quv yurti talabasi bo‘lish.
3. Siz qaysi kasbni tanladingiz? 3ta sababini yozing.

27-bilet

1. Boy va ikki xizmatkor haqidagi rivoyatni o‘qing va munosabatingizni bildiring.
2. Sinonim otlar va sinonim sifatlarni ajratib yozing: tayyor, taxt, yordam, ko‘mak, sezgir, ziyrak, qobiliyatli, teng, iste’dodli, shamol, qo‘rqmas, yel, jasur.
3. Sizingcha, zamonaviy insonlar qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?

28-bilet

1. “Ilm va hunar o‘rganish” matnini o‘qing va o‘z munosabatingizni bildiring.
2. Antonim so‘zlarini aniqlang. Ularga ma’nodosh so‘zlar yozing. Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib.
Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat. Eski yilning hisobi- yangi yilning kitobi.
Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l.
3. “Boburnoma” asarining tarbiyaviy ahamiyatini so‘zlab bering.

29-bilet

1. Ravshan Ermatov kim? U o‘zbek futboliga qanday hissa qo‘shgan?
2. Berilgan gaplardan omonim so‘zlarni ajratib yozing.
Qo‘y, bu fikringdan qayt. Semizlikni qo‘y ko‘taradi. Hujjatga imzo qo‘y. Marhamat, uyga kir. Kiyimingni kir qilma. Kir mashinasi ishni yengillashtiradi. Qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga. Bekorga ko‘zdan oqqan yosh.
3. Dunyoga mashhur muzeylar haqida bilasizmi? Sizingcha ularning mashhurligi nimada?

30-bilet

1. Alisher Navoiyning ruboiylarini o‘qing, mazmunini izohlab bering.
2. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.
1. Sen bormasang, u yerda men bir o‘zim nima qilaman.
2. Shahrimizga har yili minglab sayyohlar kelishadi.
3. Men bugun kutubxonaga bormoqchiman.
3. O‘zbekistonga tashrif buyurgan taniqli insonlardan kimlarni bilasiz? Ular haqida ma’lumot bering.